

**DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.11526792>**

## **MUSTAQILLIKNING DASTLABKI YILLARIDA SOG'LIQNI SAQLASH SOHASINING RIVOJI (SURXONDARYO MISOLIDA)**

**Xo‘janazarov Absalom Ziyadullayevich,**

Termiz davlat universiteti Davlat va huquq asoslari kafedrasi katta o‘qituvchisi

### **ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqolada Surxondaryoda ijtimoiy soha tarmoqlaridan biri bo‘lgan sog‘liqni saqlash sohasida olib borilgan keng qamrovli islohotlar bayon etilgan. Shuningdek, maqolada qishloqlarda aholi salomatligini tiklash va tibbiyat sohasining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash borasida amalga oshirilgan ayrim chora-tadbirlar hamda o‘zgarishlar haqidagi ma’lumotlar tahlili ham o‘z ifodasini topgan.*

**Kalit so‘zlar:** tibbiy soha, sog‘liqni saqlash tarmog‘idagi islohotlar, qishloq aholisi salomatligi, tibbiy xizmat, ambulatoriya, poliklinika, davolash-profilaktika muassasalari.

**Kirish.** Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda tibbiyat tizimi sohasida katta muvaffaqiyatlarga erishilmoqda. Jumladan, tibbiyat tizimini tashkil etish masalasida Surxondaryo viloyatida ham so‘nggi yillarida yaxshi natijalar kuzatilmoqda. Tibbiyat sohasining moddiy-texnik ta’minati sohasida davlat ahamiyatiga ega bo‘lgan tibbiyat mustaqilligi qo‘lga kiritilishiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Hozirda mamlakatimizdagi tibbiyat sohasidagi o‘zgarishlar va bu borada amalga oshirilayotgan islohotlar maqola mavzusining asosini tashkil etadi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Maqolada umumiyligida qabul qilingan usullar-tarixiy tahlil, qiyosiy taqqoslash, xronologik ketma-ketlik tamoyillari asosida Surxondaryo viloyatida tibbiyat sohasida amalga oshirilgan islohotlarning xususiyatlari, aholi

salomatligini tiklash va tibbiyot sohasining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash borasida amalga oshirilgan ayrim chora-tadbirlar hamda o‘zgarishlar bayon etiladi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Maqola uchun birlamchi ma’lumotlarni Surxondaryo viloyat hokimligining joriy arxivni materiallaridan iborat hujjatlar tashkil etadi. Shuningdek, “Surxondaryo viloyatining ijtimoiy rivojlanishidagi ayrim ko‘rsatkichlar tahlili (1991-2000 yillar)” va “Surxondaryo viloyat hokimligi Iqtisodiyot va statistika boshqarmasi” ning statistik to‘plam materiallaridan ham foydalanildi.

**Tahlil va natijalar.** Mamlakatimizda mustaqillikning dastlabki yillarda Surxondaryoda qishloq aholisiga berilayotgan tibbiy yordam hali sifatli va yuqori darajada emas, bolalar va onalar o‘limi yuqoriligi, yuqumli va sil kasalliklari hamda nogironlar sonining o‘sayotganligi qayd etildi. Ayniqsa, sil kasalligining ko‘payishi, oilaviy kasallanish qishloq aholisi orasida me’d-a-ichak, kamqonlik, asab, tayanch bo‘g‘in, teri va boshqa kasalliklar mavjud edi. Respublika qishloq aholisining 90-95 foizida kamqonlik kasalligining har xil turlari borligi, bolalarning 45-50 foizida vitamin yetishmovchiliklari aniqlangandi [1].

O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining tashabbusi bilan 1994 yilning 30-31 may kunlari Andijon viloyatida tibbiyot xodimlari anjumani bo‘lib, unda bozor munosabatlariga o‘tish davrining eng dolzarb muammolaridan biri «Qishloq aholisiga tibbiy xizmat ko‘rsatishning sifati va madaniyati, saviyasi, samarasini yanada oshirish masalasini» ko‘rib chiqib, muhokama qilindi. Ushbu anjumanda Surxondaryo viloyati shifokorlaridan vakillar ishtirok etib, fikrlar almashinildi.

Mavjud kamchilik va muammolarni bartaraf etish choralari ko‘rib chiqildi. 1994 yilda Respublika miqyosida 163 ta, viloyatlarda markaziy shifoxonasida 26 ta, 451 ta tuman va qishloq uchastka shifoxonasida faoliyat ko‘rsatayotganligi qayd etildi. Har yili kasalxonalarda davolanib chiqayotgan bemorlarning 58-59 foizi qishloq aholisini tashkil etdi. Ularning 70 foizga yaqini markaziy tuman, qishloq va uchastka shifoxonalarida davolangan. 1993 yilda qishloq ambulatoriyalariga bo‘lgan qatnov 20,6 mln. kishiga yetdi [1, B. 20-21].

Mustaqillikning dastlabki yillarda viloyat tibbiyoti infratuzilmasini yaxshilanishiga ham e'tibor qaratilib, aholiga tibbiy xizmatni ko'rsatish, yangi zamonaviy bilimga ega tibbiyot xodimlar bilan ta'minlash, kasalxonalarni zamonaviy talab darajasida qurish, yetarli dori-darmon, tibbiyot asbob-uskunalar bilan ta'minlash bo'yicha muhim tadbirlar ishlab chiqildi.

Natijada 1995 yildan viloyatda tibbiy xizmat ko'rsatish yaxshilana boshlandi. Davolash maskanlari soni oshib, shifoxonalardagi o'rinalar soni viloyatda 19 ta kasalxonada 2100 o'ringa yetdi. Jumladan, Denov tumanida 4 ta kasalxonada 350 o'rin, Sho'rchi tumanida 2 ta kasalxonada 400 o'rin, Sherobod tumanida 2 ta kasalxonada 480 o'rin, Qumqo'rg'on tumanida 3 ta kasalxonada 490 o'rin, Jarqo'rg'on tumanida 3 ta kasalxonada 520 o'rin, Boysun tumanida 2 ta kasalxonada 280 o'rin mavjud edi. Ularda aholiga tibbiy xizmatlar ko'rsatildi va kasalxonalar zamonaviy qayta ta'mirlanib, yangi tibbiy asbob-uskunalar bilan jihozlandi [2, B.284; 3, B. 6].

Tibbiy xizmat ko'rsatish asosini davlat ta'minotidagi muassasalar tashkil etdi. Shu bilan bir qatorda, pulli tibbiyot yoki sug'urta tibbiyoti imkoniyatlari kengaytirildi. Aholiga sifatli va talab darajasida tibbiy yordam ko'rsatish bo'yicha, viloyat hokimligining sog'liqni saqlash tashkilot va muassasalari tomonidan bir qator ishlar amalga oshirildi. Qishloq infratuzilmasini rivojlantirish sohasidagi hukumat qarorlari bajarilib, tibbiyot maskanlarining soni va salmog'i o'sib bordi.

Mustaqillikning dastlabki o'n yilliklarida O'zbekistonda tibbiyotning ko'pgina sohalarida, ko'plab sog'liqni saqlash muassasalari, Toshkent davlat tibbiyot institutining bosh o'quv binosi va Respublika bolalar kasalxonasi, Semashko nomidagi shifoxona, ko'p sohali bolalar kasalxonasi, mikroxirurgiya, buyrak, yurak, o'pka xirurgiyasi markazlari qurildi. 1998 yilga kelib, O'zbekistonda 1250 kasalxona, 177 davolash hamda ambulatoriya poliklinika muassasasi, 6288 feldsherlik-akusherlik markazi, 220 sanatoriya-epidimialogiya stansiyasi, 1900 dan ortiq dorixonalar aholiga xizmat ko'rsatdi [5, B. 21].

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar tahlili ko'ra, viloyat, tuman va shaharlarida tibbiy xizmat ko'rsatish zamonaviy asosda tashkil etilganligini kuzatish mumkin.

Masalan, Boysun shahrida aholi sog‘likni saqlash masalasida ibratli ishlar qilinib, keng tarmoqli davolash usullari joriy etildi. Boysun shahrida aholiga xizmat ko‘rsatish uchun 1998 yil 2 ta kasalxonada 90 ta vrach, 250 ta o‘rta tibbiyat xodimlari bo‘lib, kasalxonalardagi o‘rinlar soni 150 tani tashkil etgan. Shaharda tez yordam stansiyasi, faoliyat ko‘rsatib, har 10 ming aholiga 16,3 vrach, 61,3 o‘rta tibbiyat xodimlari, 27,5 kasalxona o‘rinlari aholiga xizmat ko‘rsatgan [7, B.27].

Surxondaryo viloyatining aholisiga 1999 yili 290 ta ambulatoriya, poliklinika muassasalari xizmat ko‘rsatgan bo‘lsa, 2000 yilning olti oyi ichida bu muassasalar soni 281 tani tashkil etdi. Viloyatning davolash profilaktika muassasalarida o‘rinlar soni 9035 ta bo‘lgan bo‘lsa, 2000 yilning olti oyi ichida 8823 tani tashkil qildi. Shifoxonalarda 1999 yili 211 861 bemor davolangan bo‘lsa, 2000 yilning olti oyi ichida 142 908 bemor davolangan [8, B. 374].

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996 yil 21 maydagi 182-sonli «Respublikada 1999-2000 yillarda qishloq ijtimoiy infratizimini rivojlantirish va Davlat dasturi to‘g‘risida» va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998 yil 10 noyabrdagi «Respublikada sog‘liqni saqlash tizimini isloh qilish Davlat dasturi to‘g‘risida»gi farmoniga asosan qabul qilinigan Viloyat hokimining 1996 yil 13 iyundagi 156-sonli va 1998 yil 30 noyabrdagi 304-sonli qarorlariga muvofiq, 1996-2000 va 2001-2005 yillarda qishloq ijtimoiy infratizilmasini rivojlantirish va sog‘liqni saqlash tizimini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratildi [10,11].

2005 yilga kelib viloyatda tibbiyat muassasalarning soni 90 tani tashkil etib, ushbu muassasalarning 87 tasi budjet va 8 tasi nodavlat mablag‘lar hisobidan faoliyat ko‘rsatdi. Viloyat kasalxonalarida bemorlarga xizmat ko‘rsatish uchun 84,25 bemor o‘rni soni bo‘lib, har 10 ming kishiga 43,7 ta bemor o‘rini to‘g‘ri kelgan. Shuningdek, 2005 yil viloyatda 360 ta vrachlik ambulatoriya, poliklinika muassasalari va 190 ta qishloq vrachlik punktlari aholi sog‘lig‘ini saqlashga xizmat qildi [13, B. 584].

Shunday qilib, mustaqillikning dastlabki yillarida sog‘liqni saqlash tizimida ham muhim o‘zgarishlar amalga oshirildi. Ushbu ishlar zamirida voha ahlining

salomatligini saqlash, kelajak avlodni sog‘lom va barkamol etib tarbiyalashdek xayrli niyatlar mujassamlashgan.

**Xulosa.** Yuqoridagi qayd etilgan ma’lumotlarga asoslanib, mustaqillik yillarida viloyatda tibbiyot sohasidagi mavjud xato va kamchiliklarni bartaraf etish masalasi ijobjiy hil qilinib, bozor munosabatlariga o‘tish davrida mavjud shifoxonalarning ish faoliyati tubdan yaxshilanganini ko‘rishimiz mumkin. Eng muhim aholiga zamonaviy tibbiy xizmat ko‘rsatish joriy etilib, bemorlar uchun zarur shart-sharoitlar yaratilib, dori-darmon va tibbiyot uchun zarur bo‘lgan zamonaviy texnik asbob uskunalar bilan ta’minlandi. Viloyatdagি shifoxonalar to‘la qayta ta’mirlanib, jahon andozalariga mos tibbiy xizmat ko‘rsatish tashkil etildi. Eng muhim viloyatda ona va bola salomatligini himoya qilishga alohida e’tibor berildi. Davlatning bu siyosati negizida «Sog‘lom avlod uchun» degan oliy maqsad turgan.

### ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Surxondaryo viloyatining ijtimoiy rivojlanishidagi ayrim ko‘rsatkichlar tahlili (1991-2000 yillar). – Termiz, 2000.
2. Surxondaryo viloyati xokimligi Iqtisodiyot va statistika bosh boshkarmasi (1991-2002 yillar). – Termiz, 2004.
3. Surxondaryo viloyati hokimligining joriy arxivи. Viloyat Kengashining I/VI sessiyasi materiallari (10.01.1997 y.). – Termiz, 1997.
4. Tursunov, S., Qobilov, E., Pardayev, T., & Murtazoyev, B. (2001). Surxondaryo tarix ko’zgusida. Sharq” nashriyoti Toshkent.
5. “Surxon tongi” gazetasi, 2000 yil, 6 yanvar, №1-soni.
6. Хужаназаров, А. З., & Алламуратов, Ш. А. (2021). Система здравоохранения в Узбекистане: проблемы и реформы. Бюллетень науки и практики, 7(2), 405-410.
7. Khuzhanazarov, A. Z., & Allamuratov, S. A. (2021). Reformy v sisteme zdorov'ya Uzbekistana v poslednie gody. Nauka, tekhnika i obrazovanie, 1(76), 699-705.

8. Хужаназаров, А. З., & Алламуратов, Ш. А. (2019). Тиббиётга назар: муаммо ва ечимлар. Взгляд в прошлое.–2019, 24.
9. Khuzhanazarov, A. Z., & Allamuratov, S. A. (2019). Look at medicine attention: problems and solutions. Үтмишга назар журнали, 24(2).
10. Shodavlatovna, D. S., & Chorievna, J. S. (2021). The issue of a just king in kaikous's nightmare. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(3), 1416-1420.
11. Алламуратов, Ш., & Джураева, У. (2021). Ремесленные и торговые отношения в бекствах восточной Бухары в конце XIX–начале XX вв. Общество и инновации, 2(3/S), 105-110.
12. Allamuratov, S. A., & Dzhuraeva, U. C. (2021). Irrigation and reclamation works in the surkhan oasis.
13. Жумаева, Ш. Ч. (2020). Развитие и сохранение аутентичности как условие естественного образования человека. Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук, (4), 46-49.
14. Khursandovna, K. G. (2021, February). About the mystical views of Alisher Navoi. In *Archive of Conferences* (Vol. 15, No. 1, pp. 41-43).
15. Elamanovna, D. M. (2021, March). Works and environmental education. In *Archive of Conferences* (Vol. 17, No. 1, pp. 79-80).
16. Дусназаров, М. И., & Жумаева, Ш. Ч. (2020). Теоретические основы понятия семейного воспитания с позиций становления и развития культурной традиции. *Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук*, (1), 151-154.
17. Rozieva, M. R. (2024). Gypsies of the surkhan oasis have unique aspects of their lifestyle. Journal of Modern Educational Achievements, 3(1), 221-226.
18. Rozieyva, M. (2024). Ethnogenesis and ethnic historiography of central asian gypsies. Journal of Modern Educational Achievements, 3(1), 236-242.
19. Donayevish, B. S. (2022). Faktor in the of Transboundary Water Resources in Central Asia. Central Asian Journal of Social Sciences and History, 3(10), 162-171.

20. Буриев, С. Д. (2022). Роль И Значение Водопроводных Сетей В Развитии Сурхан-Шерабадского Оазиса. Central Asian Journal of Social Sciences and History, 3(10), 172-181.